

REVMATOID ARTRITDA ASOSIY DAVO DAVOMIDA DIAGNOSTIK BIOMARKERLAR VA SITOKIN PROFILI

Anvarxodjaeva Sh.G., Eshmurzaeva A.A.

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti, Toshkent, O'zbekiston

Mavzuning dolzarbligi. Revmatoyid artrit (RA) – surunkali autoimmun kasallik bo'lib, bo'g'imlarda yallig'lanish va destruktiv o'zgarishlarga olib keladi. Kasallikni erta tashxislash va davo samaradorligini baholashda immunologik biomarkerlar va sitokin profili muhim ahamiyat kasb etadi. Anti-MCV, anti-CCP, RF va IL-6 kabi markerlar kasallik faoliyati va prognozini belgilashda qo'llaniladi.

Tadqiqot maqsadi. RA bilan og'rigan bemorlarda asosiy davo (metotreksat) davomida diagnostik biomarkerlar va sitokinlar dinamikasini baholash.

Tadqiqot materiallari va usullari. Tadqiqotga 80 nafar RA bemor jalb qilindi. Ular 2 guruhga ajratildi: 1-guruh – faqat metotreksat qabul qilganlar (n=40), 2-guruh – metotreksat va biologik terapiya olganlar (n=40). Qon zardobida RF, anti-CCP, anti-MCV va IL-6 darajalari ELISA usuli bilan aniqlanib, klinik faoliyat DAS28 shkala asosida baholandi. Statistik tahlil SPSS 25.0 dasturida o'tkazildi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari RA bilan og'rigan bemorlarda asosiy davo davomida diagnostik biomarkerlar va sitokinlar darajasining sezilarli o'zgarishini ko'rsatdi. 1-guruhda RF darajasi boshlang'ichda 128 ± 22 IU/ml bo'lib, 6 oy

davomida 94 ± 16 IU/ml gacha pasaydi ($p < 0,05$), anti-MCV esa 78 ± 14 IU/ml dan 56 ± 11 IU/ml gacha kamaydi ($p < 0,05$). 2-guruhda esa RF darajasi 130 ± 25 IU/ml dan 82 ± 12 IU/ml gacha pasaydi ($p < 0,01$), anti-MCV esa 80 ± 16 dan 48 ± 10 IU/ml gacha kamaydi ($p < 0,01$). Anti-CCP darajasi 1-guruhda sezilarli o'zgarish ko'rsatmagan bo'lsa (52 ± 10 dan 49 ± 9 IU/ml, $p > 0,05$), 2-guruhda biologik terapiya qo'shilgach, 54 ± 11 dan 40 ± 8 IU/ml gacha pasayish kuzatildi ($p < 0,05$). Bu natijalar RA faoliyati va bo'g'im eroziyasi rivojlanishini prognozlashda anti-CCP ni muhim biomarker sifatida baholash mumkinligini ko'rsatdi. Sitokin profili natijalari shuni ko'rsatdiki, 1-guruhda IL-6 darajasi $9,2 \pm 2,1$ pg/ml dan $6,4 \pm 1,7$ pg/ml gacha kamaydi ($p < 0,05$), 2-guruhda esa IL-6 darajasi $10,1 \pm 2,3$ pg/ml dan $4,8 \pm 1,4$ pg/ml gacha pasaydi ($p < 0,01$). IL-6 darajasining pasayishi DAS28 indeksidagi kamayish bilan kuchli ijobiy korrelyatsiyani ko'rsatdi ($r = +0,71$; $p < 0,001$), bu esa klinik monitoringda IL-6 ni ishonchli ko'rsatkich sifatida ishlatish imkonini beradi. DAS28 indeksi 1-guruhda $5,4 \pm 0,8$ dan $3,8 \pm 0,7$ gacha pasaydi ($p < 0,05$), 2-guruhda esa $5,6 \pm 0,9$ dan $3,1 \pm 0,6$ gacha pasayish kuzatildi ($p < 0,01$). Bo'g'im og'rig'i, shish va qattiqlik ham sezilarli kamaydi.

Munozaralar. Olingan natijalar RA da diagnostik biomarkerlar va sitokinlarning klinik faoliyat bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. IL-6 va anti-MCV darajalari davo samaradorligini monitoring qilishda ishonchli ko'rsatkich bo'lishi mumkin.

Xulosalar. RA da RF, anti-CCP, anti-MCV va IL-6 markerlarini muntazam nazorat qilish kasallik faoliyatini baholash, davo samaradorligini aniqlash va individual terapiya rejalarini tanlashda muhim ahamiyatga ega.